



MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNI DAVLAT TOMONIDAN BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Jamoat xavfsizligi universiteti Davlat huquqiy fanlar va
inson huquqlari kafedrası o'qituvchisi, leytenant
Baxtiyorov Faxriyor Akromjon o'g'li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi yoritilgan. Xususan, ro'yxatga oluvchi organ tomonidan ariza ko'rib chiqish uchun qabul qilingan kundan boshlab o'n kun muddatda huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayoni batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yer uchastkasi, muhofaza etiladigan tabiiy hudud, huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish, davlat ro'yxati.

Аннотация: В данной статье подробно изложено, что регистрация прав на земельные участки охраняемых природных территорий осуществляется в течение десяти дней со дня принятия регистрирующим органом заявления к рассмотрению.

Ключевые слова: Земельный участок, охраняемая территория, регистрация, регистрация.

Abstract: This article details that the registration of rights to land plots of protected natural areas is carried out within ten days from the date the registering authority accepts the application for consideration.

Keywords: Land plot, protected area, registration, registration.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat boshqaruvi mohiyati biz yuqorida taklif etgan tushunchada ifodalangan faoliyatni amalga oshirish uchun qo'llanadigan vositalarni tatbiq etishni jarayonida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Barchamizga ayonki, davlat boshqaruvining asosiy mazmunini uni hayotga tatbiq



etuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish, qo'llash va ular talablariga rioya etilishini ta'minlash tashkil qiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvining birinchi shakli normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish, qo'llash va bajarilishini ta'minlashdan iborat. Ushbu usul umumdavlat vakolatlariga ega bo'lgan davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Oliy Majlis, Prezident va Vazirlar Mahkamasi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, qo'llash va bajarilishini ta'minlash orqali umumdavlat boshqaruvini amalga oshiradilar.

Davlat tomonidan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilishni tartibga solish davlat organlarining qonunchilik faoliyatini tartibga solish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarning huquqiy holatini belgilab beradi. Davlat hokimiyati va ijroiya organlari tomonidan qabul qilinadigan qonun, qaror, farmon va boshqa normativ ahamiyatdagi hujjatlar barcha vazirlik, davlat qo'mitalari, muassasalar, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi. Ekologik qonunchilikda mustahkamlangan qoidalarni hayotda tatbiq etish davlat ijroiya hokimiyati organlarining asosiy vazifalaridan sanaladi.

Qonunchilik hujjatlari talablarining barcha vazirliklar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini nazorat qilish va tegishli choralarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan davlat organlarining faoliyati ijtimoiy adolatni ta'minlashga va ishlab chiqarish subyektlari huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, nazarimizda, davlat boshqaruvini amalga oshirish shakllari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: 1) normativ-huquqiy hujjatlar yaratilishi, qo'llanilishi va bajarilishini ta'minlash (nazoratning ushbu shakliga qonun, qaror, farmon, farmoyish, dastur, shuningdek, normativlar, standartlar va sh.k.larni qabul qilish, tasdiqlash, qo'llash va bajarilishi ta'minlash kiradi); 2) monitoring xizmatini yuritish; 3) nazorat faoliyatini amalga oshirish (tekshirish, baholash, tahlil o'tkazish, kadastr yuritish va hisobdorlik).



Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi turli usullarda amalga oshiriladi. Ushbu usullarning har biri o‘z ichiga bir necha faoliyat turlarini qamrab olishi mumkin. Chunonchi, ekologik monitoringni yuritish, nafaqat kuzatish, balki tabiat holati to‘g‘risida ma’lumotlar bazasi yaratishni ham ko‘zda tutadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish maqsadida davlat o‘zining maxsus vakolatli organlari orqali qonunchilik hujjatlarida belgilangan huquqiy talablar bajarilishini nazorat qiladi. Davlat nazoratining ushbu shakli tabiiy obyektlar monitoringi-nazorati-ekspertizasining yagona tizimini joriy etishni taqozo etadi. Ushbu tizimda birinchi bo‘g‘in sifatida ekologik monitoring namoyon bo‘ladi.

Yuridik adabiyotlarda atrof tabiiy muhit monitoringining davlat boshqaruviga kiritish (taalluqligi) xususida yakdil fikr bildirilmagan. Jumladan, X.R.Isanovning yozishicha, “Ekologik monitoring ekologik ekspertiza, ekologik nazorat atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni boshqarish tizimida bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi yagona faoliyati turidir”¹.

M.M.Brinchuk ham atrof tabiiy muhit holati ustidan davlat kuzatuv xizmati davlat boshqaruvining mustaqil funksiyalaridan biri hisoblanadi², deb qayd etadi. V.V.Petrov ushbu masala yuzasidan “Milliy nuqtai nazardan monitoring keng ma’noda, ya’ni nafaqat atrof tabiiy muhit holati ustidan kuzatuv olib borish, balki tabiatni muhofaza qilish choralari bajarilishi hamda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish ustidan nazorat sifatida ham talqin etilishi lozim”³, degan mulohazasini ilgari suradi. Shu yo‘sinda V.V.Petrovning dalil-isbotlariga tayanib, ekologik monitoringni davlat boshqaruvi tizimiga kiritish mumkin.

O‘z navbatida ekologik monitoringni davlat boshqaruvini amalga oshirish usuli sifatida baholashda nazarimizda quyidagi holatlarni asos qilib olish mumkin: Birinchidan, ekologik monitoring mazmunini atrof tabiiy muhit holati ustidan

¹ Исанов Х.Р. Давлат экологик мониторингини ҳуқуқий таъминлаш муаммолари: Юрид. фан. номз. ... дисс. автореф. –Т.: ТДЮИ, 2007. Б.6

² Бринчук М.М. Экологическое право. –М.: Юристъ, 2004. 449 с.

³ Петров В.В. Экологическое право. –М.: Бек, 1991, 130 с.



kuzatish yoki ma'lumot yig'ishgina tashkil etmaydi. Atrof tabiiy muhit hoalti ekologik monitoringi mohiyat e'tibori bilan tabiatdagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash va salbiy jarayonlarni bartaraf etishga, tabiat obyektlari sifatini ta'minlashga qaratilgan tadbir hisoblanadi. Shunday qilib, ekologik monitoring davlat boshqaruvining asosiy obyekti bo'lmish tabiiy resurslar sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi boshqaruv usulidir.

Davlat ekologik monitoringini yuritishning huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida va har bir alohida tabiiy obyekt (suv, o'rmon va sh.k.) bo'yicha tarmoq qonunchiligida uchratish mumkin. Qonunchilikda davlat ekologik monitoringini amalga oshirishning umumiy tushunchasi, mazmuni va vazifalari belgilab berilgan.

Davlat ekologik monitoringini yurituvchi subyektlarni, ularning maqomidan kelib chiqib ikki toifaga ajratishimiz mumkin: 1) umumdavlat miqyosidagi maxsus boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan monitoring; 2) umumdavlat miqyosidagi maxsus boshqaruv organlari tarkibiga kirmaydigan davlat organlari tomonidan olib boriladigan monitoring.

Ekologik monitoringning ushbu ikki turi o'rtasidagi farq shunda namoyon bo'ladiki, ulardan birinchisida davlat ekologik nazorati amalga oshiriladi va u ekologik monitoring hisoblanadi hamda uning maqsadi bo'lib, yuqorida zikr etilganidek, nazoratga oid vazifalarni bajarish va aniq bir qaror qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish hisoblanadi. Ekologik monitoringning navbatdagi ikkinchi turiga, uning davlat boshqaruvi organlari tomonidan oshirilishiga qaramay, davlat monitoringi va davlat ekologik nazoratini amalga oshirish usuli sifatida qarab bo'lmaydi. Monitoringning ushbu turi asosan, ma'lumot to'plash, tahlil qilish, baholash va xulosa tuzishdan iborat. Shu ma'noda, davlat boshqaruvi usuli haqida so'z borganda, tabiiyki, monitoringning birinchi turini nazarda tutamiz.

Ekologik monitoring maqsadi qonun talablariga muvofiq, qo'riqxonada fondini muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish, huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularni baholash, tabiatning tabiiy xususiyatlariga salbiy ta'sir



etuvchi jarayonlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar tavsiya etish hisoblanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirishda ekologik kadastr alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagilar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat kadastrining tarkibiy qismlaridir: ro'yxatga olish, miqdor va sifatini hisobga olish, iqtisodiy baholash, tabiiy kadastrlar to'g'risidagi ma'lumotlar tizimi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va foydalanish ustidan olib boriladigan nazoratda kadastr ma'lumotlariga asoslangan monitoring alohida ahamiyat kasb etadi⁴. Darhaqiqat muhofaza etiladigan tabiiy hududlar kadastrini yuritilishi bu boradagi nazoratni amalga oshirilishida o'z o'rniga ega. Chunki, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrini, yovvoyi o'simliklar turlari tarkibi, soni, geografik tarqalishi, miqdoriy va sifat tavsifi, ulardan foydalanish, ularni iqtisodiy baholash, ular o'sadigan muhitning tavsifi to'g'risidagi uzluksiz yangilanib turadigan axborot tizimidir.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrini foydalaniladigan, mintaqadagi ekologik muhitga ta'sir ko'rsatadigan yoki kamyob va turi yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o'suvchi tomirli o'simliklar va qo'ziqorinlarning hamma turlarini hisobga oladi. Bu esa o'simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilishda kamyob, qayta tiklab bo'lmaydigan o'zgarishlar xavfi paydo bo'lgan va turi yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o'suvchi o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatish va bekor qilish bo'yicha nazorat olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat kadastrini yurituvchi organlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanuvchi yuridik shaxslar: qishloq xo'jaligida band bo'lgan yerlarda qishloq xo'jaligi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar; davlat o'rmon fondi yerlarida o'rmon xo'jaligi korxonalar; zahiralardagi yerlarda korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, joylardagi davlat hokimiyatining vakolatli organlari

⁴ Нигматов А.Н. Экологик назорат //Экология ҳуқуқи. –Т.: ТДЮИ, 2004, 101-б.



o'simliklarning kamyob va yo'qolib borayotgan, dorivor oziqbop va manzarali turlari bo'yicha respublikaning butun hududida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastru subyektlari hisoblanadilar.

O'zbekiston Respublikasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrida quyidagi guruhlariga birlashtirilgan yovvoyi o'simliklarning har bir turi bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'ladi: yovvoyi holda o'sadigan dorivor va manzarali, shuningdek, oziq-ovqat sifatida foydalaniladigan o'simliklar; texnik maqsadlarda foydalaniladigan yovvoyi o'simliklar; tabiiy yaylovlar va pichanzorlardagi o'simliklar; yovvoyi o'simliklarning kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlari.

REFERENCE:

1. Mirziyoyev SH.M. Oliy majlisga va ko'p millatli O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi 2026-yil 2-dekabr
2. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O'zbekiston, 2018. – 508 b. ;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi //Xalq so'zi, 2017 yil 20 sentabr;
4. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.;
5. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz /O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi //Xalq so'zi, 2016 yil 16 dekabr;
6. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi //Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr;
7. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi //http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy-25-01-2020;



8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 29 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan bayram tabrigi (07.12.2021 y.) //www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti;
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitusiya kuni munosabati bilan bayram tabrigi (7.12.2021 yil) //www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
10. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021, 383-bet;